

TASDIQLAYMAN:



Xodimlarni boshqarish bo'yicha direktor

[Signature] Rojanko Ye.T.

«16» mart 2026 y.

TEXNIK TOPSHIRIQ

*«Milliy» festivalida kompaniya ishtiroki doirasida
OOO «UMS» xodimlari uchun keytering xizmatlarini tashkil etish bo'yicha*

**Toshkent shahri
2026 yil**

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar	3
1.1. Xizmatning nomi va tavsifi .	
2. Xizmat ko'rsatish joyi	3
3. Xizmat turlari	3
4. Xizmat ko'rsatish muddati	4
5. Xizmat ko'rsatilganini tasdiqlovchi hujjatlar	4
6. Kafolatlar va mas'uliyat	4
7. Maxsus shartlar	4

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1. Xizmatning nomi va tavsifi

Nomi: OOO «UMS» xodimlari uchun “Milliy” madaniy festivalida kompaniya ishtiroki doirasida keytering xizmatlarini ko'rsatish.

Tavsifi: OOO «UMS» kompaniyasining “Milliy” madaniy festivalida ishtiroki doirasida Mobiuз brendining chill-zonasida xodimlar uchun keytering xizmatlarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun yengil taomlar va ichimliklardan iborat xizmat ko'rsatish zonasini tashkil etishi kerak.

Xizmat doirasida quyidagilar amalga oshirilishi zarur:

- 12 ta an'anaviy o'zbek stoli (xontaxta) tashkil etish;
- Stol ustlarini mini-zakuska, desert va yengil gazaklar bilan bezash;
- Barcha taomlar mehmonlar uchun qulay bo'lishi maqsadida kichik porsiyalarda (mini-formatda) taqdim etilishi kerak.

Keytering assortimenti quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: mini-zakuska va yengil gazaklar, mini-desertlar.

Quyidagilardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi: mevali assorti; go'shtli assorti, tez buziluvchi mahsulotlar.

Ichimliklar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: choy, ichimlik suvi, limonad yoki boshqa alkogolsiz ichimliklar.

Xizmat ko'rsatuvchi oziq-ovqat va ichimliklar miqdorini kamida 50 nafar ishtirokchiga mo'ljallab hisoblab chiqishi kerak.

Qo'shimcha ravishda xizmat ko'rsatish doirasida yetkazib beruvchi kompaniyaning firma ramzi tushirilgan brendlangan zanjabilli pryaniklarni tayyorlash va yetkazib berishni ta'minlashi kerak. Pryaniklar soni — 150 dona.

Pryaniklar alohida qadoqlangan bo'lishi va tadbir formatida iste'mol qilish uchun qulay bo'lishi kerak.

1.2. Xarid maqsadi

OOO «UMS» kompaniyasi xodimlari uchun “Milliy” festivali doirasida qulay dam olish va norasmiy muloqot muhiti yaratish.

1.3. Xizmatlarga qo'yiladigan talablar

Ko'rsatiladigan xizmatlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Tadbir doirasida Mobiuз chill-zonasida keytering xizmatlarini tashkil etish;
- 12 ta an'anaviy o'zbek stoli (xontaxta)ni mini-zakuska va mini-desertlar bilan porsion formatda bezash;
- Tez buziluvchi mahsulotlar, shuningdek meva va go'sht kesmalaridan foydalanmaslik;
- Ichimliklar bilan ta'minlash (choy, ichimlik suvi, alkogolsiz ichimliklar);

- Oziq-ovqat va ichimliklar miqdorini kamida 50 nafar ishtirokchiga mo'ljallab hisoblash;
- Xizmat ko'rsatish uchun yetkazib beruvchi tomonidan xodimlar (barmen va menejer)ni ta'minlash.

2. Xizmat ko'rsatish joyi

“Milliy” madaniy festivali
Milliy Bog‘, Toshkent shahri.

Keytering xizmati MobiuZ chill-zonasida tashkil etiladi.

3. Xizmat turlari

№	Tadbir nomi	Tadbir nomi Tafsilotlar
1	OOO «UMS» xodimlari uchun “Milliy” festivali doirasida keytering xizmatlari. Oziq-ovqat va ichimliklar miqdori 50 nafar ishtirokchiga mo'ljallangan bo'lishi kerak.	12 ta an'anaviy o'zbek stoli (xontaxta)da keytering zonasini tashkil etish, mini-zakuska, mini-desert va ichimliklar bilan ta'minlash. Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan xizmat ko'rsatish jarayonini nazorat qilish uchun xodimlar (barmen va menejer) taqdim etiladi.
2	Kompaniya firma ramzi tushirilgan brendlangan zanjabilli pryaniklar. Miqdori — 150 dona	Pryaniklar zanjabilli xamirdan tayyorlangan bo'lishi, kompaniya ramzi tushirilgan bo'lishi va alohida qadoqlangan holda taqdim etilishi kerak.
Итого		

4. Xizmat ko'rsatish sifatiga qo'yiladigan talablar

Xizmat ko'rsatuvchi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- Keytering xizmatlarini sifatli tashkil etish;
- Oziq-ovqat mahsulotlarining yangiligi va xavfsizligi;
- Stol ustlarining estetik va tartibli bezatilishi;
- Sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinishi;
- Tadbir davomida oziq-ovqat va ichimliklarning yetarli miqdorda bo'lishi.

5. Xizmat ko'rsatish muddati

Keytering xizmatlari 2026 yil 28 mart kuni soat 16:00 dan 19:00 gacha ko'rsatilishi kerak.

Keytering zonasini tayyorlash va stol ustlarini bezash ishlari tadbir boshlanishidan oldin yakunlanishi lozim.

6. Xizmat ko'rsatilganini tasdiqlovchi hujjatlar

- Xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma
- Hisob / hisob-faktura
- Har ikki tomon imzolagan bajarilgan xizmatlar dalolatnomasi

7. Kafolatlar va mas'uliyat

Xizmat ko'rsatuvchi quyidagilarni kafolatlaydi:

- Xizmatlarning o'z vaqtida ko'rsatilishi;
- Xizmatlarning ushbu texnik topshiriq talablariga muvofiqligi;
- Oziq-ovqat va ichimliklarning yetarli miqdorda ta'minlanishi.

Xizmatlar lozim darajada ko'rsatilmagan taqdirda yetkazib beruvchi shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

8. Maxsus shartlar

Keytering xizmatlarini tayyorlash, yetkazib berish, stol ustlarini bezash va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha xarajatlar xizmatlarning umumiy qiymatiga kiritiladi.

Tayyorladi:

Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'limi
yetakchi mutaxassisi



Qlicheva Yo.Z.